

Ayn xalqining madaniyatini o`rganamiz!

“Songs of Kamui” (Kamui qo`shig`i) filmi bilan



School of SONGS OF KAMUI

Ayn bilan hamjihatlikda loyihasi

Diskriminatsiyadan holi boʻlgan jamiyat qurish yoʻlida

Bugungi kunda Yaponiyada turli millat vakillari istiqomat qiladi va har kim internet tarmoqlari orqali butun dunyo bilan bogʻlanadi. Ana shunday global dunyoning aʼzosi sifatida, mukammal jamiyat qurishda avvalo, har bir xalqning tarixini, madaniyatini oʻrganish va qadrlashimiz muhim ahamiyatga ega.

Aynlar-Yaponiya arxipelagining shimoliy qismida, Hokkaydoda oʻziga xos tili va madaniyatiga ega Yaponiyaning tub aholisi. Biroq ularning tarixi va madaniyati haqida jamoatchilik yetarli maʼlumotga ega emas.

Ushbu kitob “SONGS OF KAMUI” (Kamui qoʻshigʻi) orqali ayn xalqi va uning madaniyatiga qiziqishni orttirishga xizmat qiladigan raqamli oʻquv materialini hisoblanadi. Higashikava shahri va Hokkaydo Shinbun nashriyoti hamkorlikdagi “School of SONGS OF KAMUI” Ayn bilan hamjihatlikda loyihasi bir qismi sifatida ushbu oʻquv materialini foydalanish va yuklab olish erkin hisoblanadi.

Ishonamizki, ayn xalqi va madaniyatini targʻib qilish va ularga hurmat koʻrsatish orqali Yapon madaniyatining har tomonlama mukammalashuviga turtki boʻladi. Ushbu kitob diskriminatsiyadan holi boʻlgan koʻp madaniyatli jamiyat qurishda bir katta pogʻona boʻlishiga umid qilamiz.

SONGS OF KAMUI (Kamui qoʻshigʻi) filmi xususida

“SONGS OF KAMUI” (Kamui qoʻshigʻi) filmi 1903-yil tugʻilib, 19 yoshida vafot etgan Ayn madaniyati targʻibchisi Chiri Yukiega bagʻishlangan boʻlib, unda Yaponiya tub aholisi boʻlgan ayn xalqining betakror madaniyati va uning ahamiyatini yetkazish, diskriminatsiyadan holi boʻlgan jamiyatga intilishni targʻib etadi.

“SONGS OF KAMUI” (KAMUI QO`SHIG`I) FILM SYUJETI

Ayn qalbida Kamui (ruh, xudo) yashaydi.

Iqtidorli Teru qizlar maktabiga borishga umid qilib, imtihonlarni yuqori bahoga topshirganiga qaramay, ayn bo'lgani uchun uni o`qishga qabul qilishmaydi. Keyinchalik, 1917 yilda, u ayollar kasb-hunar maktabiga o'qishga kirgan ilk aynlik bo'lsa-da, dojin (vahshiy, yovvoyi) deya, asossiz diskriminatsiya va zo'ravonlikka duch keladi. Bir kuni ayn tili bo'yicha yetakchi mutaxassis professor Kaneda Teruning xolasi Inuye Matsunikiga borish uchun Tokyodan poyezdda yo`lga chiqadi. Ayn xalq og`zaki ijodi bo`lgan “yukar”ni tinglagani kelgandi. U ayolning kuylab bergan yukarni diqqat bilan tinglab, *“Aynligingiz bilan faxrlanishingiz kerak, zero sizlar dunyodagi o`ziga xos noyob xalqsiz”*, degan so`zlaridan qattiq ta`sirlangan Teru, “yukar”ni qog`ozga tushirishga qaror qiladi. Ayn “yukar”larini yapon tiliga tarjima qilish ishidan ilhomlangan Teru, o`zini shu ishga bag`ishlashga qaror qilib, professor uyiga Tokyoga yo`l oladi. O`zi qatori Hisashi va Teruning xolasi Inuye bilan xayrlashib yo`lga chiqqan Teru Hokkaydoga qaytib bora olmasligini bilmas edi...



Videomateriallar ijaraga beriladi.

“SONGS OF KAMUI” (Kamui qo`shig`i) filmi videomateriallari (Blu-ray disklar va h.k.) bepul ijaraga beriladi. Maktab binolari, tadbir zallari va jamoat markazlari kabi maqsadli auditoriyalarda ko`rsatadigan tashkilotlar nazarda tutilgan. Film orqali aynlarning boy xalq og'zaki adabiyotini kelajak avlodga yetkazishga katta iz qoldirgan Chiri Yukie hayoti bilan tanishish imkonini beradi. So'rov va arizalar uchun "School of SONGS OF KAMUI" rasmiy sayti yoki qo`ng`iroq qilib bog`laning.

Murojaat uchun: / Higashikava shahar hokimiyati Madaniy almashinuv bo`limi, tel: 0166-82-2111 (Mas`ul xodim)




[1] Savdo-sotiq va ayn madaniyatining shakllanishi

Hokkaydoda taxminan mil.av.10-12 ming yil avval Jomon davri, mil.av.12000-1500 yil avval o`rta Jomon davri, taxminan 1500-800 yil avval Satsumon davri va taxminan 800 yildan milodiy bir necha yuz yillar oldingi davr Ayn madaniyati shakllanish o`chog`i edi.

XIII asrdan boshlab Hokkaydoda yashovchi odamlarning turmush tarzi keskin o'zgardi. Masalan, odamlar yer osti uylardan, tekislikda qurildan uylarda yashay boshlashdi, *chashi* (to'siq va qal'alar) qurib, temirdan yasalgan ko'plab asboblardan foydalana boshlagan. Ushbu o'zgarishlar natijasida madaniyat yangi bosqichga o'tib, fan tilida "Ayn madaniyati" deb ta'riflandi. Bugungi kunda biz tasavvurimizdagi "Ayn madaniyati" XIII asrdan XIX asrning 1-yarmigacha ayn xalqining *vajin* ("qadimda yaponlar o'zlarini ajratib ko'rsatish uchun shunday atashgan) va Saxalin (Karafuto) aholisi bilan savdo-sotiq o`rnata boshlagach, bosqichma-bosqich o'zgara boshladi. Satsumon davridan Ayn madaniyatiga o'tgach, pichoq, o`q uchlari va ovqat pishirish uchun ishlatiladigan idishlar tosh va loydan emas balki temirdan yasala boshladi. Ushbu temir buyumlar Honshu oroli va Hokkaydoning janubida yashagan vajinlar (yaponlar) dan olishgan. Shuningdek, marosimlar va kundalik hayotfa ishlatiladigan "*shintoko*", "*tuki*" va "*itanki*" kabi lak bilan qoplangan idishlar ham Honshudan olib kelishgan. Bundan tashqari, yaponlardan paxtali matolar, guruch, sake (yapon an'anaviy ichimligi), tamaki va ignalar kabi turli mahsulotlar olingan, o'zlarining mahalliy mahsulotlar bilan almashishgan. Masalan, burgut va qirg`iy patlari, shuningdek, tyulenlarning terilari Honshuda qimmatbaho buyumlar sifatida qadrlangan. Bundan tashqari, ayiq va kiyik terilari, quritilgan losos balig`i, kombu po'stlog`i yoki *attushi* (daraxt po'stlog`idan mato va kiyimlar) kabi mahsulotlar vajinlarga yetkazib berilgan.



Aynlarning Matsumae urug`i
o`rtasidagi savdo mahsulotlari
Manba: Hokkaydo muzeyi



Savdo mahsuloti yoki mehnat haqi sifatida
olingan laklangan idish
Manba: ColBase (<https://colbase.nich.go.jp>)



Daraxt po'stlog`idan tayyorlangan
kiyim yaponga berilgan
Manba: ColBase (<https://colbase.nich.go.jp>)

[2] Oziq-ovqat

Qadimda aynliklarning iste'mol qilgan oziq-ovqat mahsulotlari yashay makonlariga qarab biroz farqlangan. Masalan, dengiz yaqinida yashaydigan aholi dengiz mahsulotlari, tog` va daryoga yaqin yashovchilar esa faslga qarab, pishadigan meva va sabzavotlar, daryolardan baliqlar ovlab kun kechirishgan.

Tog`da kiyim, qo`ng`ir ayiq kabi katta hayvonlar, ezo tulkisi, ezo olmaxoni, quyon kabi kichkina hayvonlarni ovlashgan. Daryo va ko`llardan esa qizil baliq, alabalik, shishamo (baliq turi) kabi baliqlar tutib, yovvoyi o`simliklar bilan qaynatib, sho`rva qilib yoki qovurib iste'mol qilishgan. Tog`larda esa yovvoyi o`simliklarni yig`ib, ularning kurtaklari, poyasi, barglari, ildizlari va mevalarini iste'mol qilishgan. Ayn xalqi faqat ovchilik va baliqchilik bilan shug`ullanibgina qolmay, dehqonchilik ham qilgan. Ayn tilida *hie* va *tariq* so`zlari mavjudligi va Jomon davridan boshlab yetishtirilganini arxeologik qazishmalar tasdiqlaydi.

Donli ekinlardan asosan bo`tqa tayyorlashgan, lekin bayram va marosimlarda oq guruch pishirilgan, shuningdek, dango (guruchli shirinlik) va sake tayyorlashgan. Shuningdek, ovchilik, baliqchilik, yig`im-terim, dehqonchilikdan yig`ilgan hosil qishlik, ocharchilikdan saqlanish uchun g`amlashgan. Ayniqsa, bahordan yozgacha yovvoyi o`simliklar, kuzda esa ekilgan hosil hamda baliqni qishlikka moslab g`amlashgan. Shunday qilib, aynliklar tabiat ne`matlaridan unumli foydalanib hayot kechirishgan.

Tabiat ne'matlaridan
unumli foydalanishgan!

\ Keling kuzatamiz! /

Ayn xalqining iste'mol qilgan taomlari



RATASIKEP

Ayn tilida "Ratasikep" so'zi "qo'shish" yoki "aralashtirish" degan ma'noni anglatadi. Bu taom sabzavot va dukkakli mahsulotlarni qaynatib, baliq yog'i yoki hayvon yog'i va tuz bilan ta'm berish orqali tayyorlanadi. Ushbu taom oddiy kundalik ovqat sifatida iste'mol qilingan, lekin ayni paytda marosimlar va bayramlarda ham muhim o'rin egallagan.



Aynlarning kundalik ovqatlanishi misolida



Manba: Shin Hidaka muzeyi

[3] Kiyinish

Aynliklar tabiatdagi narsalardan kiyim tikishgan. Shuning uchun har bir hududda ishlatiladigan xomashyolar va tayyorlash usullari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayn xalqining kiyimlari orasida "*paxtali kiyimlar*" va Ohyo (qarag'ay turi) yoki jo'ka daraxti po'stlog'idan tikilgan "*po'stloq kiyimlari*" hamda o't-o'lanlardan "*o't kiyimlari*" mavjud. Shuningdek, "*mo'ynali kiyimlar*" ni tikishda ayiq, kiyik, yapon sablesi kabi quruqlikdagi hayvonlar yoki dengiz mushugi, suv qunduzi kabi dengiz hayvonlarining terisidan foydalanishgan. Losos yoki Saxalin taymeni (losos turi) kabi baliq terisidan tikilgan kiyimlar boshqalarga nisbatan tor yengli, etak qismi kengroq, g'arb uslubidagi ko'ylakka o'xshagani bilan ajralib turgan.



Kundalik hayotda kiyiladigan "*kundalik kiyim*" bilan birga maxsus tadbir va marosimlarda kiyiladigan "*bayram kiyim*"larga bo'lib, kundalik kiyimlar oddiy bichimliliigi, naqshlari deyarli uchramasligi bilan, "*bayram kiyimlari*"dan farqlangan. Bayram kiyimlari esa ko'plab chiroyli kashtalar bilan bezatilib, hashamdorligi bilan ajralgan. Hozirda muzeylarda saqlanayotgan aynlar eski kiyimlarining aksariyati aynan shunday bayram kiyimlaridir.

Olingan sahna

Pick Up Scene

Kundalik kiyim

Filmda ham kundalik kiyim
kiygan sahna olingan.



Mochizuki Ayumu (Hisashi roli)

Honshu oroli va xorijiy mamlakatlardan kirib kelgan kiyimlar ham mavjud. Masalan, "Ezo Nishiki" deb ataluvchi ipakdan to'qilgan kiyimlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, Xitoyning Sin sulolasi amaldorlarining kiyimlari Saxalin bilan savdo aloqalari orqali Hokkaydoga kirib kelgan. Yaponlar bilan olib borilgan savdolar orqali Honshu orolidan olib kelingan narsalar orasida "Uchikake, Kosode, No liboslari" va "Jinbaori" kabi kiyimlar ham mavjud edi. Ushbu kiyimlarning barchasi qimmatbaho hisoblangani uchun, maxsus marosimlarda rasmiy kiyim sifatida ko'pincha Attushi (po'stloqdan tikilgan kiyimlar) ustidan kiyilgan.

\ Keling kuzatamiz! /

Ayn xalqining kiyim-kechaklari

Po'stloq kiyim



Manba: ColBase
<https://colbase.nich.go.jp>

Mo'ynali kiyim



Manba: Biratori shahri
Nibutani Ayn
madaniyati muzeyi

Baliq terisidan tikilgan kiyim



Manba: Kayano
Shigeru nomidagi
Nibutani Ayn materiali
muzeyi

Bayram kiyimi



Manba: ColBase
<https://colbase.nich.go.jp>

Chetdan kelgan (Honshu oroli)
jinbaori



Manba: ColBase
<https://colbase.nich.go.jp>

Ularni qaysi
paytlarda
kiyishgan
ekan-a?



[4] Turmush tarzi

Aynliklar oziq-ovqat va ichimlik suviga yaqin suv toshqini kabi tabiiy ofatlarga moyilligi kamroq bo'lgan, transport uchun qulay daryo yaqinida hamda dengiz atroflarida uylar qurishgan. Uy-joy qurishda bir necha-o'nta uylardan iborat "*Kotan*" deb nomlangan qishloq, Kotanda esa ko'plab "*Chise*" (ayn tilida "uy") qurilgan.

Uylar 20m²-100m²kenglikda bo'lib, o'sha atrofdagi tabiat ne'matlaridan foydalanib, qishloq aholisi birgalashib qurishgan. Ustunlar kashtan va eman kabi qattiq yog'ochdan yasalgan va tomi esa Kaya kabi hududda oson topiladigan somondan qurilgan. Mix ishlatmay, yovvoyi uzum va jo'ka daraxtlarining ichki qobig'idan yasalgan iplar bilan qurilgani uyning o'ziga xosligidir.




O'tmishdagi kabi qurilgan uy

Hokkaydodagi Shin Hidakedagi uy sxemasi

O'sha paytlar shunday tartibdagi uylarda yashashgan ekanda!



(g'arb)



Uyning dahliz yaqinida "o'choq" joylashgan. Bu o'choq faqat xonani isitish yoki ovqat tayyorlash uchun emas, balki muhim marosimlarda ham foydalanilgan. O'choqning atrofi oila a'zolari yoki mehmonlar yig'iladigan muhim joy hisoblangan.

Xonada "*Kamui (Ilohlari) kirib chiqadigan deraza*" ham o'rnatilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu deraza muqaddas hisoblangan yo'nalishga qaratilgan. Bu deraza shunchalik muhim ediki, u orqali tashqaridan ichkarini mo'ralashga ruxsat berilmagan. Bu deraza bilan o'choq orasidagi bo'sh joy "uy to'ri" deb atalgan.. Ba'zan mehmonlar shu joyga o'tqizilgan.

Uy atrofi "*altar*", oziq-ovqatlarni quritish uchun "*ilgich*", zaxira oziq-ovqat saqlash uchun "omborxona", boqiladigan ayiq bolalarini saqlash uchun "*ayiq qafasi*", erkaklar va ayollar uchun alohida hojatxonalar, shuningdek kiyimlarni quritishga mo'ljallangan uzun tayoqlar kabi kundalik turmushda zarur bo'ladigan turli narsalar qurilgan.

Olingan sahna



Pick Up Scene

Aynlar uyi (Chise)

Teru va Hisashi qalin qor yonbag'rida yolg'iz yashaydigan ayolga o'tin olib kelib bergan sahna. Bunda ayn uyi ko'rsatilgan.



[5] E'tiqod

Ayn xalqi, bu dunyoda mavjud bo'lgan har bir narsada "ruh, iloh" borligiga ishonishadi. Ayniqsa, hayvonlar va o'simliklar, olov va suv kabi tabiat ne'matlari, shuningdek, qayiq yoki tosh maydalagich kabi kundalik hayotda zarur bo'lgan asbob-uskunalarni ham "*Kamui*" (iloh, xudo) deb hurmat qilishgan.

Kamui tabiat yoxud buyumlar shaklida odamlar dunyosida namoyon bo'lib, insonlarga ne'matlarni ulashadi, turli rollarni bajaradi, deb ishonishgan.

Kamui-nomi

Kamui-nomi - bu "Kamui" (iloh, xudo) va "nomi" (ibodat qilish) degan ma'noni anglatadi, ya'ni odamlar ehtiyojlarini Kamui (Iloh) dan so'rab ibodat qilish marosimidir. Ayn xalqining e'tiqodiga ko'ra, dunyodagi jamiki narsalarda "ruh" mavjud.

Ayniqsa, hayvonlar va o'simliklar kabi insonlarga berilgan tabiat ne'matlar, olov va suv buyum kabi, yashash uchun kerakli barcha narsalar, shuningdek, ob-havo va epidemiya kabi inson nazorat eta olmaydigan hodisalarda "Kamui" borligiga ishonib e'tiqod qilishgan.



Ayn xalqi ibodat uchun ishlatilgan Inau ni daryoga bag'ishlash marosimi


Olingan sahna

Pick Up Scene



Ayn xalqining e'tiqodi xususida

Ichimlik yerga to'kilsa, Inue Matsu ohista, "Taxtaning orasidagi iloh chanqabdi-da", deb qo'ygan sahna olingan. Bundan aynliklar barcha narsada "iloh" bor deya ishonganliklarini tushunish mumkin



Shuningdek, zilzila, tsunami kabi tabiiy ofatlar va hayotga xavf soluvchi kasalliklar paydo bo'lishini yomon ilohning ishi deb hisoblashgan. Ayn xalqi "tabiatni himoya qilish" degan tushunchaga ega emas edi, aksincha, *Kamui* va insonlar bir-birini qo'llab-quvvatlab yashaydigan mavjudotlar deb ishonishardi. Inson o'zini tabiatning bir qismi bo'lib, unda yashashga imkon berilgan deb o'ylagan. Kamui insonlar dunyosida o'z vazifasini bajargandan so'ng, oxir-oqibat oilasi va do'stlari kutib turgan ilohlar dunyosiga qaytadi, deb ishonishadi. Shunda, Ayn xalqi "inau" (yog'ochdan yasalgan qurbonlik buyumi), sharob, dango (guruchli shirinlik), quritilgan losos kabilarni qurbonlik qilib, ularning hayotiga zarur bo'lgan Kamuini yana qaytib kelishini so'rab ibodat qilishadi.

Shu tarzda ehtirom bilan kuzatilgan Kamui yanada ulug'vor Kamuiga aylanishi va boshqa ilohlar orasida ham hurmat qozonishi haqida aytiladi. Shu kabi marosimlardan eng ahamiyatlisi "*iomante*" (ayiqning ruhini kuzatish marosimi) hisoblanadi.

Insonlar hayvonlarni ovlab, ularning go'shti va terisidan foydalanishi, bu hayvonni so'yish demakdir. Ammo Aynliklar buni hayvon tanasidagi Kamuining "ruhini" ozod qilish deb bilishadi. Inson ularning tanasidan foydalanib, Kamuining ruhini Kamuilar dunyosiga qaytaradi. Ushbu iloh keyinchalik yana hayvon tanasiga kirib insonlar dunyosiga qaytib keladi, deb ishonishadi.

Bunday marosimlar faqat tirik hayvonlar uchun emas, balki ishlatib bo'lmaydigan darajada eskirgan yoki buzilgan asbob-uskuna va narsalar uchun ham o'tkazilgan. Ushbu narsalarni oddiy chiqindi sifatida tashlab yuborish o'rniga, ularga oziq-ovqat qo'shib, ko'mishgan.



Inau

Manba: ColBase
(<https://colbase.nich.go.jp/>)



Iomante marosimida ayiq bezatish ko'rinishi

[6] Adabiyot

Ayn xalqi uzoq yillar davomida onglariga singib ketgan madaniyatdan bir og'zaki adabiyotdir. Og'zaki adabiyot deganda, yozilgan narsalarni o'qish emas, hikoyachining rivoyatlarini zavq bilan tinglab, avloddan-avlodga yetkazib kelingan asarlar tushuniladi.

Ayn xalq og'zaki ijodida turli xil hikoya qilish usullari va hikoya turlari mavjud. Ba'zi hikoyalar qo'shiq kabi hirgoyi qilib aytiladi, boshqalari esa oddiy kundalik suhbat ohangida, sodda tarzda hikoya qilinadi. Ayn xalq og'zaki ijodi asosan uchta turga bo'linadi: qahramonlik eposlari, shinyo (ilohlar kuylari) va nasriy ertaklar. Har bir hikoya qilish usuli o'ziga xos bo'lib, unga mos kayfiyatni yuzaga keltiradi.

Qahramonlik eposlari(Yukar)

Qahramonlik haqidagi hikoyalar yukar nomi bilan atalib, qisqa kuylarni takrorlash orqali aytiladi. Hikoyachining har bir o'ziga xos kuylash ohangiga ega. Masalan, boshqa hikoyachidan eshitib o'rgangan hikoyalarini o'ziga xos kuylash ohangida aytishi kuzatiladi.

Hikoyachi va tinglovchilar qo'llarida yog'och tayoq yoki shunga o'xshash narsalarni tutib, o'tirgan joyidagi yer yoki polga urib ritmga tushiradilar. Hikoya davom etarkan, tinglovchilar yoki ba'zan hikoyachining o'zi ham hikoyaning kulminatsion joyida qisqa vazn bilan ifodalashi ham mumkin. Bundan hikoyalar juda uzun bo'lib, ularni to'liq bayon etish uchun bir necha o'n daqiqadan bir necha soatgacha, ba'zida undan ham ko'proq vaqt ketishi mumkin.



Olingan sahna

Pick Up Scene



Yukar

Kinodagi qahramon Inuye Matsu o'choq atrofida o'tirib, yukar kuylamoqda. Hikoyachi ham, tinglovchilar ham qo'llarida yog'och tayoqlarni ushlab, o'tirgan joylaridagi polga urib ritmga tushirmoqda.



Ilohlar kuylari (Kamui yukar)

Aynlarning ilohlar haqidagi hikoyalar janri **Kamui yukar** deb atalib qisqa kuylarni takrorlab hikoyalar bayon qilishga aytiladi. Har bir hikoya bayon qilish ma'lum bir kuy mavjud. Shuningdek, hikoya qilayotgan paytda "**Sakehe**" deb ataladigan takroriy so'zlar qo'shilib, hikoyani ritm va ohangga solib bayon qilish bilan ajralib turadi.

Hikoyalarning mazmuni ko'pincha hayvonlar yoki o'simliklarning ilohlari, momaqaldiroq yoki kasallik ilohlari kabi turli ilohlarning Xudolar olamida yoki insonlar dunyosida boshdan kechirgan voqealarini tashkil etadi.

Kamui yukar janrida orasida Ayn xalqining ayol yozuvchisi **Chiri Yukie** tomonidan yozilgan "Ayn ilohlar kuylari to'plami" dir.

Nasriy rivoyatlar (uepeker)

Nasriy rivoyatlar (xalq ertaklari va rivoyatlari) kundalik suhbatga o'xshash ohangda, biroz bir xil ohangda yoki aksincha, bir oz balandroq intonatsiya bilan aytiladi. Rivoyatlar qahramoni odamlar, kamui, hayvonlar va asboblari kabi turli xil. Rivoyatlar mazmuni jihatdan, bosh qahramon odamlar bo'lib, ularning o'z boshidan kechirganlari va Kamui bilan bo'lgan hodisalar, Kamuining esa o'z boshidan kechirganlari, ilohlar kuylarga yaqin, qahramonlik eposiga o'xshash, kuchga to'lmagan yosh bola haqidagi rivoyatlardan iborat.



Kamui yukar

Inuye Matsu va Teru professor Kaneda oldida Kamui yukar kuylagan sahna bor. Kamui yukar qanday bayon qilayotganini eshitish mumkin.

[7] Kamui-mintar

Daysetsuzan tog' tizmasi




Manba: Higashikava turizm uyushmasi

Daysetsuzan tog' tizmasi — Kamikava Ayn xalqi "*Nutap-kamui-sir*" (daryoning yuqori oqimidagi xudo tog'i) va "*Nutap-ka-ush-pe*" (keng botqoqlikda joylashgan) deya ehtirom bilan e'zozlagan tog' tizmasi. Ular orasida sirli tog' manzaralari va Alp tog'i o'simliklari yoyilgan qismini "*Kamui-mintar*" (xudolarning istirohat bog'i) deb atashgan.

Hokkaydoning eng baland cho'qqisi, 2291 metr balandlikdagi Asahidake ("*Asahi tog'i*" deb ham yuritiladi)ning etagida joylashgan Asahidake issiq buloqda 60 yildan ortiq vaqtdan beri *Nupuri-kor-kamui-nomi* deb nomlangan ayn xalq marosimi o'tkazib kelinmoqda.


Olingan sahna

Pick Up Scene



Asahidake

Filmning ochilish kuni va Teruning mukkuri (Ayn xalq cholg'usi) chalish sahnasi kabi qismlari filmning ramziy kadrlarida Asahidake tog'i tasvirlangan.



Nupurikor-kamui-nomi




Manba: Nupurikor-kamui-nomi fotosuratlar to'plami

Nupurikor-kamui-nomi bu Asahidake tog'ining kirish joyida o'tkaziladigan festivali bo'lib, unda toqqa chiqayotganlarni o'z panohida asrashi uchun *"tog' xudosiga ibodat qilish, tog' marosimi"* degan ma'noni anglatadi. Marosimda ayn xalqining an'anaviy marosimlari, qadimiy raqslari, katta gulxan va tomoshabinlar ishtirokida mash'al bilan yurishlar o'tkaziladi.

Nupurikor-kamui-nomi Asahidake yoshlik lagerida bo'lib o'tadi va u ayn xalqining tantanali marosimlari bilan boshlanadi. An'anaviy raqs va qo'shiqlar ijro etilgandan so'ng, tadbirga kelgan mehmonlar kichik mash'alalarni qo'llariga olib, gulxan atrofida yurishadi. Oxirida hamma birlashib, katta doira bo'lib raqsga tushadigan ajoyib marosim hisoblanadi.

Kamui-mintar

Filmda Asahidake tog'idan betakror Kamui-mintar (Xudolarning istirohat bog'i) manzaralarini ko'rishingiz mumkin.



YAPONIYA MILLIY MEROSI

KAMIKAHA VILOYATIDA YASHOVCHI KAMUI BILAN HAMNAFAS BO`LGAN AYN XALQI

————→ Madaniy meros tarkibi ◀————

Madaniy meros bo'yicha
to'liq ma'lumot →



Kamui (iloh) bilan yashash



1 Ayn an'anaviy raqsi

Xudolar yurti- "Kamui-kotan"



2 Kamui-kotan
"Jinlar va qahramon xudolar
o'rtasidagi shiddatli jang"



3 Kamui-nomi ibodati

Xudolar yurti "Kamui kotan"



4 Ishikari daryosi

Ayn xalqining muqaddas joyi "Chino-mi-sir" Arashiyama



5 Arashiyama
"Chino-mi-sir"



6 Cikap-un-I

Ayn xalqining muqaddas joyi "Chino-mi-sir" Arashiyama




7 Chino-mi-sir
"Kamui-nomi"



8 Chise(uy)

Xudolar istirohat bog'i "Kamui-mintar" Daysetsuzan tog' tizmasi




9 Daysetsuzan
"Kamui-mintar"

Xudolar istirohat bog'i "Kamui-mintar" Daysetsuzan tog' tizmasi



10 Alp tog' o'simliklari: dicenta




11 Alp kapalagi



12 Nupuri-kor-kamui-nomi marosimi

Xudolar istirohat bog'i "Kamui-mintar" Daysetsuzan tog' tizmasi



13 Boyo'g'li marosimi



14 Ulug' ajdodlarni xotiralar marosimi



15 Yog'och o'ymakorlik (ayiq yasash)

Iloh bilan yashaydigan aynlar faoliyati



16 Kavamura Kaneto ayn memorial muzeyi



17 Asahikava shahar muzeyi




18 Tosho tog'i

Iloh bilan yashaydigan aynlar faoliyati



19 Ishikagi tog'i, ilgari San tog'i-iloh tog'i va qadimgi ayn jang maydonining qarorgohi



20 "Turuvchi" tosh (tatayeva) va Lyudoyed qilich (Hitomi-kanayeva)



21 Suijinryu sintoizm ibodatxonasi

[8] Chiri Yukie

Chiri Yukie 1903-yilda (Meiji 36-yili) hozirgi Hokkaydoning Noboribetsu shahri Honcho 2-chome hududida, *Nupur-pet* (Noboribetsu daryosi) bo'yida tug'ilgan va bolaligi o'sha yerda o'tgan. Otasi Takakichu va onasi Nami Chiri hamda Kanenari oilasida tug'ilgan ayn edi. U 6 yoshida Asahikawa shahriga ko'chib keladi va 19 yoshigacha xolasi Kanenari Matsu va buvisi Monasnouk bilan birga Asahikawa shahrida yashaydi.

Yukie ilk marta ayn xalqining hikoyalarini qog'ozga tushirgan "*Ayn ilohlar kuylari to'plami*" kitobining muallifi sifatida tanilgan. Bu asar 13 ta Kamui-yukar (Ilohlar kuylari) ni o'z ichiga olgan bo'lib, undagi ayn tilida yozilgan hikoyalar va ularning tarjimalari yuqori baholangan.

1922-yil (Taisho davri 11-yili) may oyida Yukie Tokyoga yo'l oladi, ammo yurak xastaligi tufayli o'sha yilning 18-sentabrida, atigi 19 yoshida hayotdan ko'z yumadi. Chiri Yukie ayn xalqining bir vakili sifatida o'z milliy g'ururi va iftixorini saqlab qolgan, ayn tili va madaniyatini yetkazish g'oyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan shaxs sifatida tanilgan. Uning vafotidan keyin ham to'plam kitobi butun dunyodagi ko'plab odamlarga ilhom bag'ishlashda davom etmoqda.



Chiri Yukie

Olingan sahna

Pick Up Scene



Kitasato Teru

"SONGS OF KAMUI (Kamui qo'shig'i)" filmi bosh qahramoni Kitasato Teru obrazi Chiru Yukieni gavdalantirgan ayol obrazidir. Film orqali Chiri Yukie haqida bilib olishingiz mumkin.



Mizuki Yoshida (Teru obrazida)

Chiri Yukie tarixiy lavhalar

- 1903 yil ● 8-iyun Hokkaydoning Noboribetsu shahrida tugʻilgan
- 1907 yil ● Ukasi Takanaka tugʻilgan
Yukie (4 yoshda) buvisi Monasnouk bilan yashay boshlaydi
- 1909 yil ● Ukasi Mashiho tugʻiladi; Yukie (6yoshda) xolasi Matsu Kannari qaramogʻiga kiradi
- 1910 yil ● Kamikavadagi 3-boshlangʻich maktabga kiradi (7yosh)
- 1916 yil ● Kamikavadagi 5-boshlangʻich maktabini tugatadi (13 yosh)
- 1917 yil ● Asahikava qizlar kasb-hunar maktabiga kiradi (14yosh)
- 1918 yil ● Kindaichi Kyosuke bilan tanishadi (15yosh)
- 1920 yil ● Asahikava qizlar kasb-hunar maktabi (17yosh)
- 1921 yil ● Ayn ilohlar kuylari toʻplamini yozib Kindaichiga joʻnatadi (18yosh)
- 1922 yil ● May oyida Kindaichi uyiga yoʻl oladi
18-sentyabr “Ayn ilohiy kuylar toʻplami”ni yozib tugatib, Oʻsha kuni kechasi yurak xuruji tufayli toʻsatdan vafot etadi
- 1923 yil ● Avgust oyida “Ayn ilohiy kuylar toʻplami” nashr qilinadi
- 1961 yil ● Kannari Matsu, Mashiho (Yukiening kichik ukasi) va Takakichi vafot etadi
- 1971 yil ● Kindaichi Kyosuke vafot etadi
- 1973 yil ● Chiri Yukie biografiyasi ga bagʻishlangan “Kumush tomchilar toʻkilib toʻkilib” nashr etiladi (Fujimoto Hideo tomonidan)
- 1978 yil ● “Ayn ilohiy kuylar toʻplami” esperanto tilida tarjima qilinadi
Toʻplam Ivanami bunko nashriyotida mashhurlikka erishdi
- 2003 yil ● Yukie tavalludining 100 yilligi; Kanazava prefekturasining Tokushima shahrida “Chiri Yukie – ozod yurtini izlashda” sayyor koʻrgazma tashkil etildi; Yukie 100 yoshida: kumush tomchilar ostida” yubiley forumi;
- 2008 yil ● Chiri Yukie toʻplami Hokkaydo hukumati tomonidan Yaponiyaning moddiy madaniy merosi sifatida tan olinishi;
- 2010 yil ● Chiri Yukie “Kumush tomchilar” memorial muzeyining ochilishi
- 2022 yil ● Chiri Yukie vafot etganiga 100 yil toʻldi



▲ Yukie bolaligi



▲ Yukie (chap tarafda) va Kannari Matsu (oʻng tomonda)



◀ Yukiening 4-sinfda yozgan yozuvi



▲ Kasb-hunar maktabidagi dars payti



▲ Kasb-hunar maktabini tugatgani haqida diplom



▲ Chiri Yukie toʻplami (nashrga chiqarilgan)

[9] Kannari Matsu


Kannari Matsu 1875 yilda Horobetsu Kotan (hozirgi Noboribetsu shahri) aynlik edi. Ayncha ismi Imekanu. Cho'qintirilgach, Mariya ismini olgan. U taniqli ayn shoirasi va baxshisi Monashinoukning qizi bo'lib, Chiri Yukiening xolasi hisoblanadi. U bolaligida oyog'idan jarohat olib, nogiron bo'lib qolgan. **1892-yilda** missioner Jon Bachalorning yordami bilan Hakodatedagi Motomachi mahallasida ochilgan **Ayrin maktabiga** o'qishga kirdi. 7 yil davomida u bu yerda yapon tilida o'qish va yozishni, hisob-kitobni, gimnastikani, shuningdek, lotin yozuvida ayn tilini yozishni va Bibliya kitobini o'rgandi. Keyinchalik u xristian missioneriga aylandi va 12 yil **Hidaka tumani Biratori Kotanda**, taxminan 20 yil davomida esa Asahikava shahri yaqinidagi **Chikabumi Kotanda** missionerlik qildi. U Chikabumida yakshanba maktabini boshqarib, talabalarni diniy ta'lim bilan shug'ullantirgan. Shu bilan birga, ayollarga tikuvchilik va to'qishni o'rgatgan. Onasi nogiron qizini parvarish qilib birga yashagan va keyinchalik jiyani Chiri Yukie (o'shanda 6 yoshda)ni qabul qilib, 19 yoshigacha tarbiyalagan. Missionerlik faoliyatidan so'ng, Kannari onasidan o'rgangan yukar larni maktabda o'rgangan lotin yozuvida yozib, **Kindaichi Kyosuke** va jiyani **Chiri Mashiho** bilan birga umumiy 160ta jild yozib qoldirdi. Bu yozuvlarning bir qismi 1958-yilda **Kannari Matsu yozuvi, Kindaichi Kyosuke tarjima va izohida "Ayn dostonlari Yukar to'plami"** nomi bilan nashr etilgan. Kannari Matsuning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, hozirda Hokkaydo Ta'lim Kengashi tadqiqotchilari va Hokkaydo Ayn jamiyati bilan hamkorlikda **Yukar seriyasi** sifatida tarjima qilib, chop ettirilmoqda. U 1956-yilda (Shova davri 31-yil) **Binafsha lentali medal** bilan taqdirlangan va 1961-yilda 85 yoshida vafot etdi.



Kannari Matsu

Olingan sahna

Pick Up Scene



Shimada Kaho(Inuye Matsurolida)

izoh

Filmda Inuye Matsuning qora rangda bo'yalgan, bu esa aslida qora tatuirovkadir. Ayn xalqining odati ga ko'ra balog'at yoshiga yetgan ayn ayol labi atrofini tatuirovka qilish bilan ifodalashgan.

Inuye Matsu roli

Filmda Inuye Matsu rolida Kannari Matsu obrazi gavdalandirilgan. Filmda chiroyli yukar kuylagani tasvirlangan.



[10] Kindaichi Kyosuke

Kindaichi Kyosuke (1882-yilda, Meiji davri 15-yil, Iivate prefekturasida tug'ilgan) Yaponiyaning mashhur tilshunosi va etnografi bo'lib, ayn tilini ilmiy jihatdan o'rganishni boshlab bergan olim sifatida tanilgan. Tokyo Imperatorlik Universitetida o'qiyotgan davrida, uning ustozlaridan biri bo'lgan Ueda Kazutoshi unga: *"Ayn xalqi faqat Yaponiyada yashaydi, shuning uchun ayn tilini o'rganish Yaponiyalik olimlarning dunyo oldidagi mas'uliyatidir,"* deb aytganidan keyin, Kindaichi ayn tiliga qiziqqa boshlaydi. Keyinchalik u Hokkaydoga borib, ayn tili haqida ma'lumot yig'ib o'rganishni boshlaydi.



Kindaichi Kyosuke

Hududni tadqiq qilish davomida u ayn xalqiga tegishli bo'lgan epik doston yukarga alohida e'tibor qaratadi. 1918-yil yozida, Hokkaydoda ayn madaniyati va tilini o'rganish uchun bo'lgan safarida, u Kannari Matsu va Monashinoukni ziyorat qiladi. Shu paytda u birinchi marta Chiri Yukie bilan tanishadi. Uning iste'dodini tezda payqagan Kindaichi unga "Kamui Yukar"ni yozib, kitob shaklida nashr qilishni tavsiya qiladi. Kindaichining eng muhim ishlari qatorida aynu tilining tizimli grammatikasini o'rganish va avval faqat og'zaki tarzda o'tib kelgan ayn tilini yozma shaklda qayd etish kiradi. U Kannari Matsu va Chiri Yukie bilan muloqot qilib, ayn xalqining og'zaki tarzda yetkazilgan dostonlari yukarni yozib olgan. Chiri Yukie erta vafot etganidan so'ng, u uning ishini davom ettirdi va ayn madaniyati yo'qolib ketishini oldini olish maqsadida yukar va boshqa ayn tilidagi og'zaki ijodlarni tartibga solib, tarjima qildi. U tomonidan tuzilgan **"Ayn dostonlari Yukar to'plami"** ayn madaniyatining qimmatli yozma merosi sifatida keyingi avlodlarga yetib kelgan. Bundan tashqari, u ayn tilining talaffuzi va grammatikasini batafsil qayd etgani tufayli, ayn tilini ilmiy tadqiq qilishga yo'l ochdi va bu keyingi avlodlar faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

U 1971-yilda, 89 yoshida vafot etdi.



Kato Masaya (Professor Kaneda obrazida)

Professor Kaneda

Hokkaydoda Teruni uchratgan paytida uning qobiliyatini birdan payqagan professor Kaneda "Kamui-yukar" ni yozib qoldirishni maslahat beradi. Filmda ayn tili va madaniyati **keyingi avlodlarga yetkazish masalasi tasvirlangan.**

[1] Hokkaydoni o`zlashtirish va ayn xalqi

Hokkaydo prefekturasi aslida ayn xalqining tabiat bilan hamnafas yashash makoni bo'lgan. 1869-yil (Meyji davri 2-yili) Yaponiya hukumati aynliklarning fikrini ham tinglamay, ushbu orolni Hokkaydo deb atab, va ayn xalqini Yaponiyaning fuqarolari sifatida ta'kidlaydi. Hukumat yangi qonun joriy etib Hokkaydoni "davlat yeri" sifatida foydalanishni boshladi. Natijada, asl o'rmonlar kesilib, shaharchalar, yo'llar, portlar qurildi va temir yo'llar ishga tushirildi. Ushbu "o'zlashtirish" jarayoni davomida ayn xalqi kyudojin "eski "tubjoy xalq" deb ko'p taxqirlanadi.

[2] Assimilyatsiya siyosati va uning ta'siri

Ayn xalqi nafaqat o'zlarining odatlangan yerlardan mahrum bo'ldi, balki ularning madaniyati va urf-odatlariga ham ko'plab cheklovlar kiritildi. Ayn tilidan foydalanish taqiqlanishi, yaponcha ismga o'tishga majburlash, tatuirovka va ziraklar taqiqlanishi, shuningdek, losos baliqlarini ovlashga cheklov qo'yilishi amalga oshirildi. Ushbu siyosatlar ayn xalqini Yapon jamiyatiga assimilyatsiya qilishni maqsad qilgan "assimilyatsiya siyosati" deb ataladi.

[3] Hokkaydo tubjoy aholisini himoya qilish qonuni

1899-yili Yaponiya hukumati "Hokkaydo tubjoy aholisini himoya qilish qonun"ini qabul qilib, ayn xalqi dehqonchilikka o'ta boshladi. Ushbu qonun asosida ularga yer ajratilgan edi, ammo ajratilgan yerlarning ko'pi qishloq xo'jaligiga yaroqsiz edi va yetarli darajada yordam ham ko'rsatilmaganligi sababli ko'plab muammolar yuzaga keldi. Bu siyosat rasmiy ravishda "himoya" deya ta'riflangan bo'lsa-da, amalda ayn xalqiga nisbatan yoppasiga assimilyatsiya qilish siyosatining bir qismi edi va bu ularning madaniyati va turmush tarziga katta ta'sir ko'rsatdi.

Olingan sahna

Pick Up Scene



Chiri Yukiening "Ayn ilohiy kuylar to'plami" o'sha davrda nashr qilingan. Filmda ham o'sha davr tasvirlangan



[4] Hokkaydo Ayn uyushmasining tashkil etilishi

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, 1946-yil asosan Hokkaydoda yashovchi Ayn xalqiga qaratilgan "Hokkaydo Ayn uyushmasi" tashkil etildi. Ushbu uyushma Ayn xalqining ijtimoiy mavqeini yaxshilash va ularning madaniyatini saqlab qolish va yetkazish maqsadida o'z faoliyatini davom ettirdi va 1961 yilda "Hokkaydo Utari uyushmasi" nomiga o'zgartirildi. 2009-yil u qayta "Hokkaydo Ayn uyushmasi" ga o'zgartirib, yangi faoliyatini boshladi. Uyushma ayn tili va an'anaviy ijro san'atini asrab-avaylash va avlodlarga yetkazish, ijtimoiy ko'mak va kamsitishlarga barham berishga qaratilgan ma'rifiy tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, u mahalliy va xalqaro miqyosda mahalliy xalqlarning huquqlarini muhokama qilishda ishtirok etib, muhim rol o'ynaydi.

[5] Ayn madaniyatini va siyosatini targ'ib qilish qonuni

1980yilgi BMT tashkilotiga yig'ilgan quyidagi bayonot qilishdi:

1

Mahalliy aholi
yerlari va
resuslarini qayta
tiklash

2

Qadim zamonlardan
beri saqlanib qolgan
madaniyatni himoya
qilish va rivojlantirish

3

Siyosiy sohada fikr
bildirish huquqini
qo'lga kiritish

Ayn xalqi ham mahalliy aholi sifatida ushbu talabni qo'llab-quvvatlab, "Yaponiyada qadimdan faqat yapon xalqi yashab kelgan" degan millat nazariyasiga qarshi noroziliklar davom etdi. Natijada, 1997-yili yuqoridagi 2-bayonot, ya'ni **madaniyatni targ'ib qilish**ga oid qismini "*Ayn madaniyatini targ'ib qilish to'g'risidagi qonun*" sifatida qabul qilindi.

Ayn madaniyatini targ'ib qilish to'g'risidagi qonun

1997-yil qabul qilingan ushbu qonun asosida, huquqiy jihatdan ayn xalqi Yaponiyaning kam sonli xalqi deb tan olgan edi. Ushbu qonunning rasmiy nomi "*Ayn madaniyatini rivojlantirish hamda uning an'analari bo'yicha tadqiqni kengaytirish va targ'ib qilish to'g'risidagi qonun*" deb ataldi. Ushbu qonun ayn xalqining tili va madaniyatini saqlash va qayta tiklashni maqsad qilib, muhim o'zgarishlar ko'zda tutilgan edi.

Biroq, ushbu qonun asosan madaniyatni rivojlantirishga e'tibor qaratib, mahalliy aholi sifatida ayn xalqining huquqlari va hayotiy ta'minot masalalarini qamrab olmagan edi.

Ayn siyosatini ilgari surish to'g'risidagi qonun (Ayn xalqi uchun yangi qonuni)

2019 yil mayda Ayn xalqini qonuniy ravishda birinchi marta "mahalliy xalq" deb aniq belgilagan "Ayn siyosatini ilgari surish to'g'risidagi qonun" kuchga kirdi. Ushbu qonunning to'liq nomi "Ayn xalqining g'ururi hurmat qilinadigan jamiyatni barpo etish uchun siyosatni ilgari surish to'g'risidagi qonun" deb ataladi. Ushbu qonunda Ayn xalqini mustaqil hayotga ko'maklashish, hududlarni rivojlantirish hamda kamsitishlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar o'z ichiga kiritilgan bo'lib, quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

Ayn xalqi o'z milliy g'ururini saqlagan holda yashashi va buni boshqalar hurmat qilinadigan jamiyatni barpo etish

Barcha fuqarolar bir-birining shaxsiyati va o'zligini hurmat qilgan bahamjihat jamiyatni barpo etish.

Eslatma

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....



6 Turli madaniyat hamjihatlikda yashovchi jamiyat tomon

Yaponiyada turli til va madaniyatga ega ko'plab millat vakillari yashaydi. Aynlar ham shu millat vakillarining biri sifatida ajdodlardan meros bo'lib kelgan marosim va tadbirlarni bahamjihatda o'tkaziladigan boy madaniyatga ega edi. Biroq, Hokkaydoni o'zlashtirish va davlatning assimilyatsiya siyosati tufayli ayn til va madaniyati tadbir qilinmay qoldi va ko'plab urf-odatlar o'tkazilmay qo'yildi. Shu bilan birga, ayn tili ham zaiflashib, hozirda "yo'qolish xavfi ostidagi til" sifatida ro'yxatga kiritilgan.

Tilning yo'qolishi, ushbu tilga xos bo'lgan o'ziga xos dunyoqarash va madaniyatning ham yo'qolishini anglatadi. Hozirda ayn tilini biladigan odamlar juda kam, uni kundalik hayotda ishlatadiganlar esa bundan ham kamroq. 1980-yillardan boshlab ayn xalqi o'z madaniyati va marosimlarini tiklashni boshladi. Bu faoliyatga aynliklardan tashqari boshqa vakillar ham qo'shilib, keng miqyosda faoliyat olib borishmoqda.

Madaniy tiklanish va almashinuvni kengaytirish



Hozirgi kunda "Ayn tili darslari"dan tashqari, milliy kiyimlar, cholg'u asboblari, taomlar, yog'ochdan buyumlar yasash kabi aynu madaniyatini tajriba qilish imkonini beradigan turli mashg'ulotlar tashkil etilmoqda va ularda ko'plab odamlar ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, qadimgi aynu uylari, qayiqlari va kiyimlari tiklanib, an'anaviy losos baliq ovlash va kiyik ovlash marosimlari qayta tiklanmoqda. Ushbu faoliyatlar aynu xalqining "hayotiy donoligi" bilan tanishish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bugungi kunda aynu madaniyati an'analarni davom ettirgan holda, yangi shakllarda rivojlanmoqda. An'anaviy raqslar, musiqa va san'at asarlarini ichki va xalqaro darajada namoyish qilayotgan odamlar soni ortib bormoqda va aynu madaniyatiga bo'lgan qiziqish tobora kuchaymoqda. Ayn oshxonasi va an'anaviy naqshlarini o'z ichiga olgan dizaynlar kundalik hayotda qo'llanilmoqda va ko'plab odamlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

"Ayn madaniyatini rivojlantirish to'g'risidagi qonun" va "Ayn siyosatini ilgari surish to'g'risidagi qonun"ning qabul qilinishi natijasida ayn madaniyati maktablar va mahalliy jamoalarda yanada kengroq tanitila boshlandi. Ushbu qonunlar asosida madaniyatni saqlash va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, ayn tili, an'anaviy raqslar va qo'shiqlarni davom ettirib, kelgusi avlodlarga yetkazishni maqsad qilgan odamlar soni ortib bormoqda va faoliyat yanada faollashmoqda.



Ayn tili darsi

Manba: Nibutani Ayn tili darslari bolalar
bo'limi, Biratori shaharchasi



Ayn madaniyati bo'yicha tadbir

Manba: Kavamura Kakuto Ayn yodgorlik muzeyi

Bahamjihatli jamiyat qurish yo'lida



Uzoq yillar davomida ayn madaniyati qiyinchiliklarni yengib, avloddan-avlodga yetkazib kelingan. Bunda madaniyatni saqlab qolish uchun harakat qilgan ayn ajdodlarining sa'y-harakatlari yotadi. Bugungi kunda turli mamlakatlar va hududlarda turfa millatlarning birgalikda yashashi tabiiy hol ekanligi tan olinmoqda. Har bir millatning tarix va madaniyatini 'hurmat qilish va bir-birini tushunish' birga tinch va farovon yashash uchun muhim omillardandir.



An'anaviy ayn xalqining yog'ochdan
ishlangan buyumlari namunalari

Manba: ColBase (<https://colbase.nich.go.jp>)



Ayn madaniyati bo'yicha tajriba
darslarida yaratilgan narsalar

Manba: Kavamura Kakuto Ayn yodgorlik muzeyi

Ayn madaniyatining ruhi

Hamma narsani e'zozlab, tabiat bilan hamnafas yashash

Ayn xalqi har narsani "Kamui" (xudo) sifatida hurmat qilgan va tabiat bilan birga yashashni muhim deb bilgan. Masalan, yovvoyi o'simliklarni yig'ish paytida zarur bo'lganidan ortiqni olib qo'ymaslik va qolgan qismini keyingi o'sishga qoldirish odatiy hol edi. Shuningdek, hayot uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar va buyumlar yaqin atrofdagi tabiiy materiallardan "uzoq vaqt xizmat qilishi" uchun ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqarilgan. Aynlar bu narsalarni ham Kamuining bir ko'rinishi deb bilib, ularni katta hurmat bilan saqlaganlar. Tabiatga va buyumlarga bo'lgan bu hurmat zamonaviy jamiyatda ommaviy iste'mol madaniyatini qayta ko'rib chiqish nuqtai nazaridan juda qiziqarli tuyuladi. Ayn ruhi barqaror jamiyat qanday bo'lishi kerakligi haqida mulohaza yuritish uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin.

Hamma hurmat qilinadigan jamiyat

Ayn xalqi uchun o'zaro yordamlashish muhim hayot tamoyili edi. Ov, baliq ovlash, uy qurish kabi ishlar butun qishloq aholisi bilan birgalikda amalga oshirilardi. Ushbu o'zaro yordam ruhi ayn tilidagi "Ureshipa" (bir-biriga yordam berish) so'zida ham ifodasini topgan. Bolalar "qishloqning boyligi" sifatida mehr bilan tarbiyalangan, keksalar esa "buyuk donolik" egalari sifatida hurmatga sazovor bo'lgan. Shuningdek, qishloqni boshqaruvchi "qishloq yetakchisi" quyidagi sifatlarga ega bo'lgan shaxslar orasidan tanlangan: notiqlik mahorati (Pavetok), jasorat (Rametok), chiroyli ko'rinish (Shiretoku), va mohir qo'l mehnati (Teketoku). Ular jamiyatning asosiy ustuni hisoblangan. Ushbu hurmat va hamkorlik ruhi hozirgi zamonaviy jamiyatda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyat deb aytish mumkin.


Hamsuhbatda qurilgan jamiyat

Ayn xalqi boshqa hududlarga erkin borib kelib, savdo va muloqot orqali farovon jamiyatni barpo qilgan. Ularning hayoti asosida tinch va barqaror jamiyatni maqsad qilgan tamoyillar yotgan.

Nizo yuzaga kelgan taqdirda ham, muammolarni hal qilish uchun yetarli darajadagi muzokara qilish birinchi o'rinda turgan va kuch yoki urushga tayanish faqat oxirgi chora sifatida qaralgan. Ushbu dialogga asoslangan yondashuv zamonaviy, turli xil madaniyatlardan tashkil topgan jamiyatdagi muammolarni hal qilish uchun ham foydali fikrlarni taqdim etadi.

[7] Ayn madaniyati ruhini hozirgi davrda qo'llash

Hozirgi zamon jamiyati moddiy farovonlikdan bahramand bo'layotgan bir paytda, insonlar o'rtasidagi aloqalarning zaiflashuvi, tabiiy muhitning vayron bo'lishi, urush va qashshoqlik kabi muammolarga duch kelmoqda. Bunday davrda ayn xalqining qadriyatlari va hayot tarzida biz o'rganishimiz kerak bo'lgan ko'plab donishmandlik yotadi. Tabiatni hurmat qilish, insonni qadrlash va dialogga katta ahamiyat berishga asoslangan ayn madaniyatining ruhini anglash va uni kundalik hayotimizga joriy etish orqali, biz barqaror va uyg'unlashgan jamiyatni yaratish sari bir qadam yaqinlashishimiz mumkin.



Ayn madaniyatidan
nimalar o'rganib, uni qay
yo'sinda hayotga tadbiq
qilsa bo'larkan-a?



Ayn xalqi haqidagi muzey va ma'lumotlar saqla



Chiri Yukiening yozib qodirgan kitobi



"Chiri Yukie: Ayn ilohiy kuyalar to'plami"

Nakagawa Hiroshi boshchiligidagi,
Ivanami Bunko nashriyoti

"Qadimda bu bepoyon Hokkaydo, ota-bobolarimizning ozod jannatmakon go'shasi edi." Ayn xalqining o'zaro bayon qilib, og'zaki ravishda avloddan avlodga yetkazib kelgan iliq so'zlari va hikoyalari. O'z xalqi va ajdodlarining merosini keyingi avlodlarga qoldirib, ayn xalqi haqida ko'plab odamlar o'qishini istagan hikoyalar to'plami. Assimilyatsiya siyosatiga qarshi turib, qaynoq his-tuyg'ular va umid ila Chiri Yukie (1903-1922) tomonidan yozilgan bebaho Kamui yukar.

Film taqdimoti munosabati bilan komiks kitoblari sotuv



Songs of Kamui (Kamui qo komiks kitobi)

Manga: Kaze Nakahara, Asliy asar mual nashriyotchi: Shunyodo Shoten

Manga Big Comic Awards mukofoti laure Kaze Nakaxara tomonidan komiksni film Mangada Ayn xalqining xalq og'zaki adab epic etaktarni yapon tiliga tarjima qilga kuylar to'plami" sifatida avlodlarga qoldir qahramonona hayoti tasvirlangan. Sh uchramaydigan qahramon-Ayn iti Ado ha xosligini ochib bergan.

madigan muassasalar

shi



ning har
xalqining
bilib
'ladi.

ga chiqarilgan!

'shig'i)

ifi: Hiroshi Sugavara,

ate manga rassomi
ga moslashtirilgan.
iyoti - "Yukar" nomli
n va uni "Ayn ilohiy
gan Yukie Chirining
uningdek, filmda
m manganing o'ziga

01 Hokkaydo Ayn markazi 060 - 0002, Sapporo sh., Kita-ku 2-burilish, nishi 7, Kaderu binosi 2/7 	02 Hokkaydo muzeyi 004-0006, Sapporo sh., Atsubetsu tuman, Atsubetsu kv Konopporo53-2 
03 Sapporo shahar ayn madaniyat almashinuvi markazi (Sapporo Pirka Kotan) 061-2274, Sapporo, Minami t., Koganeyu 27 	04 Tomakomai san`at muzeyi 053-0011, Tomakomai, Suehiro 3-9-7 
05 Yukar-no sato ayn xalqi bo'yicha qo'lyozmalar (Noboribetsudagi ayiq bog'i ichida) 059-0551, Noboribetsu, Noboribetsu-onsen 224 	06 Upopoy milliy ayn muzeyi va bog'i 059-0902, Shiraoi tuman, Shiraoi, Vakakusa 2-3 
07 Chiri Yukie memorial muzeyi 059-0465, Noboribetsu, Noboribetsu-hon, 2-34-7 	08 Yakumo xalq san`ati va yog'och ayiqqlar muzeyi 049-3112, Futami t., Yakumo, Suehiro 154 
09 Hakodate shahar shimoliy xalqlar muzeyi 040-0053, Hakodate, Suexiro 21-7 	10 Biratori shahar Nibutani ayn madaniyati muzeyi 055- 0101, Saru t., Biratori, Nibutani 55 
11 Nibutani hunarmandchilik muzeyi 055- 0101, Saru, Nibutani, Biratori 61-6 	12 Saru tuman tarixiy muzeyi 055-0101, Saru t., Biratori sh., Nibutani 227-2 
13 Asahikava muzeyi 070-8003, Asahikava, Kagura 3-7, Daisetsu Crystall hall binosida 	14 Kavamura Kaneto ayn memorial muzeyi 070-0825, Asahikava sh., Hokumon 11-kv. 
15 Nayoro shahar Kitaguni muzeyi 090-0063, Nayoro, Midori-oka 222 	16 Esashidagi Oxotsk muzeyi 098-5823, Esasi t., Esasi sh, Mikasa kv.1614-1 
17 Obihiro shahar yuzillik muzeyi 080-0846, Obihiro, Midori-oka 2 	18 "Ureshipa-chise" ayn madaniyat rivojlantish markazi 088-0333, Shiranuka t., Shiranuka higashi 3-tor kucha, kita 1-2-27 
19 Kushiro shahar muzeyi 085-0822 Kushiro, Sunkodai 1-7 	20 Akankodagi ikor ayn teatri 085-0467 Kushiro sh., Akan, Akanko-onsen 4-7-84 
21 Abashiri o'lka tarixi muzeyi 093-0041, Abashiri, Katsura 1-1-3 	22 Kaga oilasi arxiv materiallari 086-0201, Notsuka t., Betsukai kv., Metsukai, miyamai-cho 29 

“SONGS OF KAMUI”

filmi va “School of Songs of Kamui” Ayn hamjihatlik loyihasidan tilaklar

Hokkaydoda oʻziga xos tili, dini va madaniyatiga ega mahalliy tub aholi — ayn xalqi yashaydi. Ayn tili yozuvi boʻlmasa-da, uzoq yillar davomida ogʻzaki ravishda avloddan-avlodga oʻtib kelgan. Shu paytda, Chiri Yukie oʻz hayotini xavf ostiga qoʻyib, ayn tilini yozma shaklda qayd etish va kelajak avlodlarga yetkazish borasida katta hissa qoʻshdi.

“Songs of Kamui” filmi — bu Chiri Yukiening hayotiga asoslangan hikoya boʻlib, u Daysetsuzan togʻlarining ulugʻvor tabiati goʻshasida tasvirlangan. Bu film ayn xalqining madaniyatini asrab-avaylash muhimligini anglatish bilan birga, kamsitishsiz barcha tenglikda yashaydigan dunyoga intilish gʻoyasi asosida yaratildi. Filmda ayn xalqining tabiat bilan hamnafas yashagan muhiti, va ular duch kelgan qiyin ijtimoiy sharoitlar tasvirlanib, madaniyat va qadriyatlar xilma-xilligining ahamiyati namoyon etiladi.

Ushbu film va loyiha nafaqat tarixdagi kamsitish va tazyiqlarga, balki hozirgi jamiyatda hali ham mavjud boʻlgan “masxaralash”, “kamsitish” va “mojaro” kabi muammolarga eʼtibor koʻrsatishga qaratilgan. Shu bilan birga, kelajak avlodlarimizga mamlakat ichki va tashqi muammolarini hal qilishda bahamjihatlikda, totuvlik va uygʻunlikka asoslangan jamiyatni qurishda xizmat qilishiga tilakdoshmiz.



“Songs of Kamui” filmi

Aktyorlar:

Mizuki Yoshida (Teru Kitasato rolida)

Ayumu Mochizuki (Hisashi rolida)

Kaho Shimada (Matsu Inuye rolida)

Misa Shimizu (Sizzuka Kaneda rolida)

Masaya Kato (professor Kaneda rolida)

Suratga olish guruhi

Rejissyor/Ssenariynavis: Xiroshi Sugavara

Prodyuser: Kiyoko Sakuma

Studio: Cinevoice

Hamkor: Fotografiya madaniyati poytaxti

"Fotosurat shaharchasi" Hokkaydoning Higashikava shahri



Higashikava shahri va “Hokkaydo shimbun” gazeta nashriyoti

“School of Songs of Kamui” Ayn hamjihatlik loyihasi

Suratlarni taqdim etganlar muassasalar (muayyan tartibda):

Hokkaydo muzeyi, Ayn madaniyat jamg'armasi (Ko'mak jamg'armasi),

Nibutani Ayn madaniyati muzeyi (Biratori shaharchasi),

Shin-Hidaka shahri Ayn etnografik muzeyi,

Tokyo Milliy Muzeyi Higashikava Turizm Assotsiatsiyasi,

Daysetuzan tog' etaklari Kamikavadagi Ayn Yaponiya milliy merosi Targ'ibot Kengashi,

Kavamura Kaneto Aynu Yodgorlik Muzeyi , Cinevoice, Otsuka Yukinori

Matnni taqdim etganlar:

Hokkaydo Shimbun gazeta nashriyoti Asahikava filiali savdo bo'limi

Ilmiy ko'mak:

Chiri Yukie “Kumush Tomchilar” memorial muzeyi

2024-yil dekabrda nashr qilingan



Hokkaydoning Noboribetsu shahrida joylashgan. Ayn tilida Nupur-Pet (suvi to'q rangli daryo) deb ataladi. Ushbu muzey shu hududda tug'ilgan aynlik Chiri Yukiening yutuqlari bilan tanishtirish va u orqali ayn xalqining madaniyati haqida yetkazishga asoslanadi. Muzey butunlay xalqning xayr-ehsonlari evaziga qurilgan. 2002-yilda boshlangan mablag' yig'ish faoliyati 2500 dan ortiq odamlardan yig'ilib, 2010-yilning kuzida "Chiri Yukie kumush tomchilar memorial muzeyi" ochildi.

Ma'lumot uchun:

■Manzil: Ind:059-0465 2-34-7, Noboribetsu Honmachi, Noboribetsu shahri, Hokkaydo
■tel/faks:0143-83-5666 ■E-pochta:ginnoshizuku@carrot.ocn.ne.jp ■Ish kuni: 9:30-16:30
(kirish16:00gacha) ■Seshanba (dam olish kunlaridan tashqari), yakshanba kunlari (guruhlar va sayohatlar uchun oldindan band qilish kerak)

Hokkaydodagi Higashikava shahri haqida

Higashikava - Hokkaydoning deyarli markazida joylashgan, Hokkaydoning eng baland tog'i bo'lgan **Asahidake tog'i (2291 m)** bilan mashhur, tabiiy boyliklarga ega bo'lgan, aholisi qariyb 8500 kishi bo'lgan go'zal qishloq manzaralari bilan qoplangan bir shaharcha. "**Higashikava**" nomi ayn tilidagi Chup Pet ("sharqda joylashgan suv manbai, quyosh va oy chiqadigan joy") so'zining tarjimasidan kelib chiqqan. Shaharning asosiy sanoatini guruch yetishtirishga asoslangan qishloq xo'jaligi, yog'ochsozlik va turizm hisoblanadi. Daysetsuzan tog'laridan keladigan yer osti suvi ne'mati bilan shaharning barcha xonadonlari ta'minlanadi, bu esa mamlakat bo'yicha ham noyob hisoblanadi. Shaharning sharqiy qismi Yaponiya bo'yicha eng yirik milliy bog'lardan biri – **Daysetsuzan milliy bog'i** tarkibiga kiradi. Bu yerda go'zal alp o'simliklari, yorqin kuzgi barglar va changli qor kabi landshafti bilan ajralib turadi. Tog'ga chiqish kabi turli xil faoliyatlari bilan yilning to'rt faslida dunyo bo'ylab sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

1985-yilda shahar o'zini "**Fotosuratlar shahri**" deb e'lon qilgan va "Fotosuratga yaxshi tushadigan shahar" maqsadida surat madaniyatini markaziy nuqtaga qo'yib, mamlakat ichida va xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni rivojlantirishga kirishgan. Bundan tashqari, shahar mebel ishlab chiqarish markazi sifatida tanilgan bo'lib, **Asahikava mebellarining** asosiy ishlab chiqarish hududi hisoblanadi.

Shuningdek, Yaponiyada birinchi bo'lib davlatga qarashli yapon tili maktabini tashkil etgan va bu yerda yapon tili o'rganuvchi xalqaro talabalar yashab, shaharning xalqaro almashinuvi faol bo'lib kelmoqda.

